ANDIJON VILOYATI BO‘STON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 5-iyun | 105-1-19-Q/25 | Bo‘ston tumani hokimligi

Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta’lim muassasalarini mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida

Bo‘ston tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2025-yil 3-apreldagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida”gi 01-21-25-sonli xatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bob, 39-bandi va hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25- moddalariga muvofiq

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Bo‘ston tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2025-yil 3-apreldagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida”gi 01-21-25-sonli xati ma’qullansin.

2. Tuman maktabgacha va maktab ta’limi tasarrufidagi har bir ta’lim muassasalariga mikrohududlar biriktirish jadvali 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Bo‘ston tumani hokimining **2025-yil 15-apreldagi 78-1-19-Q/25-sonli** qarori bekor qilinsin.

4. Tuman hokimligi devonxonasi (O.Umarov) mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan bekor qilingan tuman hokimining qaroriga tegishli belgilar kiritsin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Ochildinova)ga ushbu qaror matbuotda rasman e’lon qilinishi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavfsiya etilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Y.Abdurahmonov hamda tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i A.Axmadaliyevlar zimmasiga yuklatilsin.

Bo‘ston tumani hokimi  **S.A.NOSIROVA**

Bo‘ston tumani hokimining
2025-yil 5-iyundagi
105-1-19-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablariga biriktirilgan mikrohududlar

RO‘YXATI

№	Maktab raqami	Biriktirilgan mikrouchastka
1.	1-umumta’lim maktabi	Maorif MFY, Guzar MFY
2.	2-umumta’lim maktabi	Yangiqishloq, MFY (G‘allakor ko‘chasidan tashqari)
3.	3-umumta’lim maktabi	Ko‘hinur MFY, (Sohil ko‘chasidan tashqari)
4.	4-umumta’lim maktabi	Guliston MFY, (Yuksalish ko‘chasidan tashqari)
5.	5-umumta’lim maktabi	Xalqobod MFY, Shaftolizor ko‘chasi
6.	52-IDUM	G‘olib MFY, Mustaqillikning 15 yilligi MFY, Qo‘rg‘oncha ko‘chasi
7.	7-umumta’lim maktabi	Xalqobod MFY, (Shaftolizor ko‘chasidan tashqari)
8.	8-umumta’lim maktabi	Mustaqillikning 15 yilligi MFY, (Qo‘rg‘oncha ko‘chasidan tashqari)
9.	9-umumta’lim maktabi	Bog‘i eram MFY
10.	10-umumta’lim maktabi	Dehqonobod MFY, (Soy bo‘yi ko‘chasidan tashqari)
11.	11-umumta’lim maktabi	Obod MFY, Mehnatobod MFY, Ravnaq ko‘chasi
12.	12-umumta’lim maktabi	Xovos MFY
13.	13-umumta’lim maktabi	Nurafshon MFY, Mehnatobod MFY, Bo‘ston ko‘chasi
14.	14-umumta’lim maktabi	Madaniyat MFY, Do‘stlik MFY,
15.	15-umumta’lim maktabi	Yangiobod MFY, (Beshgul ko‘chasidan tashqari)
16.	16-umumta’lim maktabi	Davlatobod MFY
17.	17-umumta’lim maktabi	Navro‘z MFY
18.	18-umumta’lim maktabi	Sarbon MFY
19.	19-umumta’lim maktabi	Yakka tol MFY
20.	20-umumta’lim maktabi	Guliston MFY Yuksalish ko‘chasi, Mehnatobod MFY Muruvvat va Yog‘du ko‘chalari
21.	21-umumta’lim maktabi	Gulshan MFY
22.	61-IDUM	Pillakor MFY Bodomzor, Ulug‘bek, Obod turmush, Ziyoli, Mirishkor, Nihol ko‘chalari. Dehqonobod MFY Soy bo‘yi ko‘chasi, Bo‘ston MFY Binokor, Quruvchi, Ma‘rifat, A.Qodiriy ko‘chalari.
23.	23-umumta’lim maktabi	Sari jo‘ga MFY

24.	24-umumta’lim maktabi	Yangiqishloq MFY, G‘allakor ko‘chasi
25.	25-umumta’lim maktabi	Yangiobod MFY, Beshgul ko‘chasi
26.	26-umumta’lim maktabi	Bo‘ston MFY (Binokor, Quruvchi, Ma‘rifat, A.Qodiriy ko‘chalaridan tashqari)
27.	26-boshlang‘ich maktabi	Ko‘hinur MFY, Sohil ko‘chasi
28.	48-IDUM	Pillakor MFY (Bodomzor, Ulug‘bek, Obod turmush, Ziyoli, Mirishkor, Nihol ko‘chalaridan tashqari)